

II bo'lim.

Salomatlik – tuman boylik





Maqolning ko'zgudagi aksini o'qing va mazmunini izohlang.

.ov6b 6pn6t – ov6n 6zoT

Sizningcha, havoning tozaligi insonlarga bog'liq bo'lishi mumkinmi?

Mavzu yuzasidan 3 ta fikr ayting. 2 ta savol tuzing. “Tutun zahri” iborasini nimaga qiyoslash mumkinligini bitta so'z bilan ifodalang.



Audiomatni diqqat bilan tinglang.
Tutun zahri



1. O'simliklarning tabiatga qanday ta'siri bor deb o'ylaysiz?
2. Xazonlarning yoqilishi inson salomatligiga qanday zarar yetkazadi?
3. Yoqilgan xazonlarning atrof-muhitga ta'siri haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Ayting-chi, xazonlardan qanday qilib foydali mahsulot olishimiz mumkin?
5. Havoning tozaligini saqlash uchun siz qanday yo'lni tanlagan bo'lardingiz?



Fikrlarni o'qing. Fikrlar mazmuni to'g'ri bo'lsa "ha", noto'g'ri bo'lsa "yo'q" deb javob bering.

- 1.** Bir tonna quruq barg yoqilganda havoga o'ttiz kilogramm zararli chiqindi ajralib chiqadi.
- 2.** Barglar Quyosh nurlari ta'siri ostida kislorod gazini yutib, karbonat angidrid ishlab chiqaradi.
- 3.** Xazonlarni yoqayotganlar faqat atrofdagilar sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazadi.
- 4.** Xazonlarning chiqindisida azot va fosfor miqdori o'g'itdan qolishmaydi.
- 5.** Xazonlarni yo'q qilish tuproqning muzlashini 2-4 marta kuchaytiradi.



Audiomatndagi gaplar ketma-ketligini aniqlang.

Tabiatda har bir narsa o'ta aqllilik bilan to'g'ri taqsimlangan. Yashil barglar va maysalar o'simlikni oziq moddalar bilan ta'minlaydi.

Bir tonna quruq barg yoqilganda havoga o'ttiz kilogramm zararli chiqindi ajralib chiqadi.

Bunda inson organizmini sekin-asta ishdan chiqargan holda birinchi galda zararli moddalarni qon orqali tashish bilan bronx-o'pka tizimi aziyat chekadi. So'ng buyraklar va jigar, bosh miya, asab tizimi shikastlanadi, shuningdek, immunitet pasayadi.

Quruq barglar bilan ularning ichida qishlaydigan foydali qurt-qumursqalar ham birga yonib ketadi.

O'simliklar urug'lari va ildizlarini yo'q qilib, daraxtlarga zarar keltiradi.

Agar havo atmosferalardan chiqqan tutunlar, zavod va fabrikalardan chiqqan chiqindilar va insoniyat tomonidan yetkazilgan boshqa halokatli harakatlar natijasida ifloslangan bo'lsa, barglar va o't-o'lanlar ushbu moddalarni o'zlariga singdirib oladi, ya'ni ular ekologik ifloslanish oqibatlarini oldini olgan holda havoni tozalaydi va kislorod ishlab chiqaradi.



O'rganilgan mavzu yuzasidan 3 ta fikr ayting va 2 ta savol tuzing. "Tutun zahri" iborasini nimaga qiyoslash mumkin? Uni bir so'z bilan ifodalang. Mavzuni o'rganishgacha bo'lgan fikringiz bilan taqqoslang.



"Toza havo uchun" mavzusida qanday ishlar amalga oshirish mumkinligi haqiga fikringizni yozing.